

O'ZBEKISTONDA OILA INSITUTINING SHAKILLANISHI: MUAMMO VA O'ZGARISHLAR

Esanova Munira Oybek qizi

Nizomiy nomidagi TDPU tarix fakulteti

401- gurux talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yurtimizda oilaga qaratilayotgan alohida e'tibor, oila jamiyatning asosiy bo'g'ini ekanligi, farzand tarbiyasida ota- onalarning tutgan o'rni xususida so'z yuritildi.

Аннотация: В данной статье говорится об особом внимании, уделяемом семье в нашей стране, о том, что семья является основным звеном общества, и о роли родителей в воспитании детей.

Abstract: This article talks about the special attention paid to the family in our country, the fact that the family is the main link of society, and the role of parents in raising children.

Ключевые слова: нравственность, ребенок, образование, школа, семья, будущее, место.

Kalit so'zlar: odob- axloq, farzand, tarbiya, maktab, oila, keljak, o'rin

Ключевые слова: нравственность, ребенок, образование, школа, семья, будущее, место.

Key words: morals, child, education, school, family, future, place

O`zbekistonda odob-axloq ilmiga, ma`naviyat masalalariga katta e`tibor berilmoqda, ayniqsa yoshlarning ma`naviy qiyofasini mustaqillik mafkurasi, uning insoniy tamoyillari asosida shakllantirishga bosh vazifa sifatida qaralayotgani bejisemas. Eng quvonarlisi shundaki, Prezidentimiz yoshlarning ma`naviy tarbiyasiga, ularning bilim va kasb mahoratini oshirish masalalariga alohida e`tibor berib kelmoqda. Chunki mustaqilligimizning uch tayanchi-mustaqlil siyosat, iqtisodiy qudrat va halq ma`naviyati bir-biri bilan chambarchas bog`liq bo`lib, ularning uyg`un rivoji ta`minlansagina O`zbekiston buyuk yurt sifatida jahon hamjamiyatida o`z munosib o`rnini topa oladi. O`zbekistonning buyuk kelajagini bunyod etish asosan bugungi yosh avlodning zimmasida ekan, ularni bilimli, madaniyatli, mehnatsevar, tashabbuskor, izlanuvchan etib shakllantirish hayot tajribasiga ega, qiyinchiliklarda toblangan yoshi ulug`larimiz, faxriylarimizning, shu bilan birga mazkur ishga da`vat etilgan tarbiyachilar, muallimlar, olimlarning va umuman barchanining asosiy vazifasi bo`lib qoladi. Bu borada yoshlar tarbiyasi davlat siyosatining ustuvor yo`nalishlaridan biri hisoblanadi. Yoshlar muammolari instituti, iste`dodlarni tanlash markazlarining tashkil etilishi yoshlarni ma`naviy va jismoniy shakllantirish, iqtidorli yoshlarni tanlash,

rag`batlantirish borasida davlatimiz olib borayotgan siyosatning namunasidir. Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek: "Har bir insonning, ayniqsa endigina hayotga qadam qo'yib kelayotgan yoshlarning ongiga shunday fikrni singdirish kerakki, ular o'rta ga qo'yilgan maqsadlarga erishish o'zlariga bog'liq ekanligini, ya'ni bu narsa ularning sobitqadam g'ayratshijoatiga, to'la-to'kis fidokorligiga va cheksiz mehnatsevarligiga bog'liq ekanligini anglab etishlari kerak. Xuddi shu narsa davlatimiz va xalqimiz ravnay topishining asosiy shartidir".

Har bir ota-onan farzand tarbiyasida o'zlarining burch va ma'suliyatlarini chuqr anglashlari lozim. Oilada ruhiy xotirjamlik, samimi yunusabat, ota-onan obro'sining yuqori bo'lishi, bolalarga talab qo'yishda oila kattalari o'rtasidagi birlikning saqlanishi, bola shaxsiyatini tarbiyalashga alohida e'tibor berish, bolani sevish va izzatini joyiga qo'yish, oilada qat'iy rejim va kun tartibini o'rnatish, bolaning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish, boladagi o'zgarishlarni kuzatib borish, undagi mustaqillikka intilish va tashabuskorlik sifatlarini qo'llab-quvvatlash ota-onalarning pedagogik bilimlarga ega ekanligini ko'rsatadi. Oila tarbiyasi ijtimoiy tarbiya bilan uzbek aloqada bo'lsagina, kutilgan natijalarga erishish mumkin. Bu borada ota-onalarning oilada farzand tarbiyasi va ma'naviy -axloqiy, ruhiy hamda jismoniy kamoloti uchun zarur bo'lgan ijobiy ota-onalik ko'nikmalarini o'zlashtirib borilishi katta ahamiyatga ega. Har bir ota-onan o'z farzandini dunyodagi eng toleyi baland, ma'rifatli va saodatli bo'lishini istaydi hamda bunga erishish yo'lida harakat qiladi. Farzand tarbiyalayotgan ota-onan har bir harakati, yurish turishi, muomalasi, boshqalar bilan o'zaro munosabatida oliyjanob fazilatlarni namoyon eta bilishi kerak. Chunki bola tabiatan nihoyatda taqlidchan va kuzatuvchan bo'ladi. Shuning uchun uning atrofdagilari o'z odatlari bilan ba'zan o'zlari sezmagan holda ularga ta'sir qiladilar. Oiladagi qo'pol munosabatlar, ko'p yolg'on gapirish, yoqimsiz xatti-harakat bola tarbiasiga salbiy ta'sir qiladigan nosog'lom muhitni keltirib chiqaradi.

Farzand tarbiyasida ota-onanining muomalasi muhim o'rinn tutadi. Bola ota-onan tomonidan qo'pol, dag'al so'zlar eshitib, kaltak yeb katta bo'lsa, bu uning tabiatiga salbiy ta'sir qiladi. Bu esa o'z navbatida oiladagi nosog'lom muhitda tarbiyalanayotgan boladan «ma'naviy kasal» insonlar shakllanadi. Ular esa jamiyat ma'naviyatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Albatta bola tarbiyasi o'ta murakkab va ma'suliyatlidir. Xususan respublikamizda ajrimlar soni 2003 yilda 17580 tani tashkil qilgan bo'lsa bu ko'rsatkich 2023 yilga kelib 48733 tani tashkil qilgan. Ma'lumotlarga qaraganda aliment undirish bo'yicha ijro xujjalari respublika bo'yicha 300 mingtani tashkil qiladi ekan. Bundan ko'rinish turibdiki kamida 300 ming bolani ko'ngli yarm bo'lib ulg'aymoqda. Bizda ajrashgan er-xotinlar sudni juda yomon qabul qiladi, ko'pchiligi qasdashish oqibatida aliment to'lamay qo'yadi. Natijada bolaning keyingi hayotini o'ylab, uning ta'minoti va tarbiyasi borasida kelishuv qilinmaydi, "ajrashish madaniyati" yetishmaydi. O'zi bu ajralishlar oilaga taalluqli barcha tashkilot,

jamoatchilik uchun ham katta muammo. Er-xotin birga yasholmasa ham, bolalarining taqdiri, keyingi kelajagi masalasida kelishuvga erishishi lozim. Aytishadi-ku, sobiq er yoki xotin bo‘lishi mumkin, lekin sobiq farzandlar bo‘lmaydi. Bu har bir ota-onadan o‘z ustida muntazam ishlashni, bolalar tarbiyasiga oid barcha ma'lumotlardan baxobar bo'lib borishni talab etadi. Farzand tarbiyasi bu shunchaki tajriba, oddiy ko'rsatma va bilimlar jamlanmasi emas, balki o‘z ichiga diniy-axloqiy bilimlar, tibbiyat, etika, psixologiya, pedagogika kabi sohalariga oid bilimlarni ham qamrab oladigan murakkab jarayondir.

Xulosa qilib aytganda, yoshlikdan hayotda yashash nimani anglatishini aytish joiz . Qattiq mehnat qilmadi, bu yerda ro‘zg‘or topa olmasligini, bo‘lmasa, hayotda ko‘p qiyinchiliklarga duch kelishini biror kasbi, hunari dangasalikdan esa ahmoqlik chiqadi, xunuk ishlarga qo'l uradi, axloq va tarbiya buziladi. Shuning uchun ham ota-onar farzandlariga odob-axloqni o‘rgatish, ularni bilimli va malakali qilish, ko‘zlarini pazandalikka tayyorlash ham farz, ham farzdir. Har bir oilada bolani tarbiyalashning o‘ziga xos va tegishli muhim qoidalari mavjud bo'lib, ularga qat'iy rioya qilish tarbiyaning samaradorligini ta'minlaydi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, bu qonunlarni nisbatan umumiy deb aytish mumkin, chunki har bir bola mavjudot, ularning har biri o‘ziga xos xususiyatga, ahamiyatiga, mentalitetiga va xatti-harakatiga ega, shuning uchun hal qilinishi kerak bo‘lgan ehtiyojlarga bog‘liq. Shunday ekan, tarbiyada ota-onaning mas’uliyati, mahorati, aql-zakovati, obro‘-e’tibori muhim o‘rin tutadi. Ota-onalar bola tarbiyasini maktabgacha ta’lim muassasalari, maktablar va jamoatchilik bilan hamkorlikda qat'iy amalgalashishi , barcha bolalarga teng munosabatda bo'lishi, ularga adolatli munosabatda bo'lishi, bolaning yoshi, o'sishi va rivojlanish xususiyatlarini hisobga olishi va shu bilan birga bolaning o‘z shaxsiyatini hurmat qilishi va unga nisbatan talabchan bo'lishi muhim ahamiyatga ega .

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ta'lim to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. - T.: O'zbekiston, 2020.
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan quramiz. - T.:O'zbekiston, 2017.
3. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha harakatlar strategiyasi// <https://www.lex.Uz>
4. 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi// <https://www.lex.Uz>
5. G'oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob.
6. Stat.uz electron portal.